

TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARINING AHAMIYATI

*Bekbosinova Dilfuza Kadirbay qizi
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
Turizm fakulteti 3-bosqich talabasi
bekbosinovadilfuz6@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada turizm industriyasida transport xizmatlarning o‘rnini, transport vositalarining turlari, transport sayohatlarining shakllari, xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq muammolar va uning yechimlari, xulosa va takliflar keltirib o‘tilgan.

Annotation. The articleThe article describes the role of transport services in the tourism industry, types of vehicles, forms of transport trips, service problems and their solutions, conclusions and suggestions.

Kalit so‘zlar: Transport xizmatlari, transport turlari, transport sayohatlari, turizmda havo transporti, vakum tunellar.

Key words: Transport services, types of transport, transport trips, air transport in tourism, vacuum tunnels.

Kirish. Ma’lumki, bugungi kunda iqtisodiyot va sanoat tarmoqlari jadal rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotning yirik sohalaridan biri turizm sohasi ham eng jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biridir. Turizmda xizmat ko‘rsatish asosan ikki turi ya’ni asosiy va qo‘srimcha xizmat turlariga bo‘linadi. Transport xizmati ham turizm bozorining asosiy xizmatlar qatoriga kiritiladi. Ammo ko‘plab transport korxonalarini turizmga taalluqli bo‘lmagan ya’ni oddiy fuqarolarni, pochta va yuklarni ham tashiydilar. Chunki ma’lumki, turizm mavsumiy harakterga ega tarmoqlardan biri hisoblanadi. Turistlar tashrifi susayganda, transport korxonalarining ham daromadi tusha boshlaydi. Natijada transport korxonalarini uchun muammolar tug‘ila boshlaydi. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida transport korxonalarini boshqa tashish ishlarini ham amalga oshiradilar.

Turistlarga transport xizmatini ko‘rsatish - bu turizm industriyasining eng asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Demak, transport turizm industriyasining asosiy elementidir. Xalqaro va hatto milliy transport infratuzilmalariga bo‘lgan talab ko‘p

sonli odamlarni samarali, tez va oqilona tarzda tashishni talab qiladi. Transport ijtimoiy sohaga bevosita ta'sir ko'rsatadi va sayohatni ta'minlaydi. Transport sayohati - bu turli xil transport vositalaridan foydalanib ishlab chiqilgan yo'nalishlar bo'yicha turistlar guruhlarining sayohatidir.

Transport vositalarini umumiy holda uch guruhga bo'lishimiz mumkin:

- Tashishning yer ustida olib yurish turlari bo'yicha transport vositalari;
- Havo orqali tashish turlari bo'yicha transport vositalari;
- Dengiz va daryo suvlari orqali tashish bo'yicha transport vositalari.

Transport sayohatlari quyidagicha tasniflanadi²⁰:

- harakatlanish yo'nalishi (marshruti) bo'yicha;
- foydalanilayotgan transport turi bo'yicha;
- yo'nalish trassasining qurilishi bo'yicha;
- sayohatning muddati bo'yicha;
- mavsumiylik bo'yicha.

Turizm sohasida transport ta'minoti quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- u asosiy turistik xizmatlar sifatida turlarga qo'shilib uning yordamida turistlarni bir joydan ikkinchi joyga olib borish va qayta olib kelish mumkin;
- transfer xizmatlarini ko'rsatish ya'ni turistlarni kutib olish va kuzatib qo'yish;
- tur-safar bo'yicha dasturlashtirilgan tadbirlarga xizmat ko'rsatish: ekskursion xizmat, dasturdagi tadbirlarga borish, atrofga tashrif byurish, yo'nalish bo'yicha ko'chish;
- turga kiritilgan sayoxat davomida ijaraga beriladigan yengil avtomashina.

Aviatashuvlar boshqa transport vositalari bilan xizmat ko'rsatishga nisbatan bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu eng avvalo, ob-havo sharoitiga bog'liqligi hamda samolyotlarning uchish va qo'nish joylaridagi landshaft bilan bog'liq. Bundan tashqari, harakatlanadigan tarkibdan foydalanish shart-sharoitlari aeroportlarni aholi yashaydigan joylardan tashqariga chiqarishga majbur qiladi va yo'lovchilar bevosita uchishga tayyorgarlik ko'rishi uchun ancha ko'p vaqtini taqozo etadi. Shunga qaramay,

²⁰ Norchayev A.N., Umirova D.S.. "Turizmda transport xizmatlari": O'quv qo'llanma. – T.: IQTISODIYOT, 2020. – 158 bet.

aviatashuvlar o‘zining asosiy ustunligi- manzilga juda tez eltib qo‘yishi bilan yer usti va suv transporti bilan jiddiy raqobatlashadi. Lekin Respublikamizning ko‘pgina aeroportlarida haligacha hal etilmagan muammolar mavjud. Bulardan eng asosiysi yo‘lovchilarning samolyot bortiga chiqish va tushish vaqtida aeroportga to‘g‘ridan to‘g‘ri ulangan vakum tunellarning yo‘qligidir. Bu masala nafaqat sayyoohlarga bundan tashqari boshqa maqsadlarda parvozga shaylanayotgan yo‘lovchilarga ham noqulaylik tug‘diradi.

Xalqaro turizmning ikki shaklida ya’ni chiqish va kirish turlarida ham transport tizimlaridan keng foydalanilishini hisobga olgan holda havo transportidan foydalanish statistikasini tahlil qiladigan bo‘lsak, ICAO ning yillik global statistik ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda jadval asosidagi qatnovlar bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilarning umumiy soni 2,3 milliard kishiga oshgan, bu o‘tgan yilga nisbatan 28,1 foizga, jo‘nab ketganlar soni esa 2021-yilda 24,2 millionga oshgan. 19,2 foizga o’sdi²¹. O‘zbekistonda transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi:

1-jadval

Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi²²

Ko‘rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023 ^{Q1}	2023 ^{Q2}	2023 ^{Q3}	2023 ^{Q4}
Tashilgan yo‘lovchilar, mln.kishi	6 025,1	5 295,9	6 029,7	6 245,3	1 447,5	3 008,1	4 672,4	6 452,0
temir yo‘li	22,9	6,2	7,9	9,0	2,5	4,9	7,4	9,7
avtomobil ¹	5 915,2	5 248,5	5 914,2	6 092,1	1 404,2	2 917,7	4 541,3	6 270,2
trolleybus	0,7	0,3	0,5	0,5	0,2	0,4	0,5	0,7
tramvay	3,8	1,2	2,3	2,9	0,8	1,7	2,6	3,4
metropoliten	79,2	38,8	101,8	136,7	38,7	81,0	117,0	162,7
havo yo‘li	3,2	0,9	3,0	4,1	1,1	2,4	3,6	5,3
Yo‘lovchi aylanmasi,	140,1	118,3	137,0	146,5	33,9	71,4	110,9	152,7

²¹ <https://www.icao.int/sustainability/WorldofAirTransport/Pages/the-world-of-air-transport-in-2021.aspx>

²² <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>

mlrd. yo‘lovchi-km								
temir yo‘li	4,4	1,8	3,1	3,6	1,0	1,9	3,0	3,9
avtomobil ¹	124,1	113,2	127,9	131,0	29,6	62,4	96,7	133,8
trolleybus	0,02	0,01	0,01	0,01	0,004	0,01	0,01	0,02
tramvay	0,02	0,004	0,01	0,01	0,003	0,01	0,01	0,01
metropoliten	0,6	0,3	0,7	1,0	0,3	0,6	0,9	1,2
havo yo‘li	11,0	3,0	5,3	10,9	3,0	6,5	10,3	13,8

Yuqorida keltirilgan jadvalga qaraydigan bo‘lsak, yildan yilga deyarli barcha transport vositalarida yo‘lovchilar soni o‘sishi kuzatilmoqda. Bu o‘rinda avtomobil transport vositasi yetakchilik qilayotgan bo‘lsa, temir yo‘l transporti hamda metropoliten, havo transporti keyingi o‘rnlarni egallab turibdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytishimiz kerakki, bugungi kunda turizm sohasining jadal rivojlanishida transport xizmati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Eng qulay va vaqt ni tejaydigan transport vositasi bu – havo transporti hisoblanadi. Ushbu transport vositasidan foydalanishda yo‘lovchilar uchun yanada mukammal qulayliklar yaratish maqsadida, respublikamizning barcha mahalliy va xalqaro aeroportlariga vakum tunellar barpo etilsa, nafaqat turistlar balki aholiga ham qulay shart-sharoit yaratgan bo‘lamiz. Bundan tashqari O‘zbekiston hududlariaro ichki aviareyslar sonini "Low coster" tizimi asosida ko‘paytirish hamda hududlar ma’muriy markazlarini yagona transport bog‘lamasi orqali birlashtiruvchi tezyurar temir yo‘l tarmog‘ini yaratish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Norchayev A.N., Umirova D.S.. “Turizmda transport xizmatlari”: O‘quv qo‘llanma. – T.: IQTISODIYOT, 2020. – 158 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Turizm to‘g‘risidagi Qonuni.
3. www.scopus.com – Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
4. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar markazi sayti.

5. www.uzbektourism.uz - O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi rasmiy web-sayti.

6. www.stat.uz/uz - O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi rasmiy sayti.